AFG‘ONISTON TA’LIM TIZIMINING RIVOJLANISH TARIXI

Sultonboyev Asadbek Ulug‘jon o‘g‘li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20291491

Annotatsiya: Mazkur maqolada Afg‘oniston ta’lim tizimining tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Maqolada qadimgi davrlardan boshlab islomiy ta’lim an’analari, XIX–XX asrlarda zamonaviy ta’lim tizimining shakllanishi, shuningdek, siyosiy beqarorlik va fuqarolar urushlarining ta’lim sohasiga ta’siri yoritilgan. Ayniqsa, Omonullaxon davridagi islohotlar, “Tolibon” davrida ta’lim tizimining inqirozi hamda xorijiy davlatlarning Afg‘oniston ta’lim siyosatiga ta’siri tahliliy asosda ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Habibiya maktabi, ‘‘Dar al-Muallimin’’, pardeh, AXDP, ‘‘Hizb-e Islomiy’’, O‘tish davri kengashi, ISA.

Kirish

Afg‘oniston hududi qadimdan Sharq va G‘arbni bog‘lovchi muhim sivilizatsion makon bo‘lib, bu yerda ta’lim va ilm-fan an’analari juda erta davrlardan boshlab shakllangan. Bugungi Afg‘oniston hududi qadimgi Baqtriya, Araxosiya va Gandxara kabi yirik madaniy-hududiy birliklar tarkibiga kirgan bo‘lib, bu hududlarda ilmiy bilimlar, falsafa, tibbiyot, astronomiya va adabiyot rivojlangan. Ayniqsa, Gandxara sivilizatsiyasi davrida ta’lim monastirlar va ibodatxonalar huzurida olib borilgan bo‘lib, bu yerlar nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlar markazi sifatida ham tanilgan.

Islom dini kirib kelishi bilan Afg‘oniston hududida ta’lim yangi bosqichga ko‘tarildi. VII–IX asrlardan boshlab masjid va madrasalar asosiy ta’lim maskanlariga aylandi. Bu davrda Qur’on, hadis, fiqh kabi diniy fanlar bilan bir qatorda mantiq, matematika, geografiya, tarix va tibbiyot fanlari ham o‘qitilgan. Balx, Hirot, G‘azna va Kobul kabi shaharlar mintaqadagi yirik ilmiy markazlarga aylangan. Ayniqsa, G‘aznaviylar va Temuriylar davrida Hirot shahri ilm-fan va madaniyat markazi sifatida yuksak obro‘-e’tibor qozongan. O‘rta asrlarda Afg‘oniston hududida yashab ijod qilgan ko‘plab olim va mutafakkirlar islom sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan. Ularning asarlari nafaqat mintaqada, balki Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Yevropa ilmiy muhitida ham keng tarqalgan. Bu davrda ta’lim tizimi ustoz-shogird an’anasi asosida faoliyat yuritgan bo‘lib, bilim avloddan-avlodga uzluksiz tarzda yetkazib berilgan.

Adabiyotlar sharhi va metodlar

Nensi Hetch Dupri o‘zining Afg‘oniston tarixi va madaniyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida Omonullaxon davridagi ta’lim islohotlarini keng yoritib, an’anaviy diniy ta’lim va zamonaviy dunyoviy ta’lim o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni tahlil qiladi. Samadiyning “Afg‘onistonda ta’limga umumiy nazar” asarida XX asrning o‘rtalarida Afg‘oniston ta’lim tizimining rivojlanish ko‘rsatkichlari statistik ma’lumotlar asosida ochib berilgan. Barnett Rubin va Barbara Metkalf kabi tadqiqotchilar esa “Tolibon” harakati va uning ta’lim siyosatini tahlil qilgan. Ularning asarlarida Deoband madrasalari ta’siri, diniy ekstremizm va madrasalar tizimining siyosiylashuvi ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, ushbu olimlar Afg‘onistondagi fuqarolar urushi ta’lim infratuzilmasining izdan chiqishiga sabab bo‘lganini qayd etadi.

Mazkur maqolada tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va kontent-tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokamalar

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, Afg‘onistonda zamonaviy ta’limga o‘tish jarayoni boshlandi. Amir Abdurahmonxon va keyinchalik shoh Omonullaxon davrida dunyoviy fanlarni o‘qitishga ixtisoslashgan maktablar ochildi, chet elda tahsil olish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Bu davrda ilk davlat maktablari, litseylar va pedagogik muassasalar tashkil etilib, ta’lim tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilina boshlandi. Shu tariqa, Afg‘oniston ta’lim tizimi ming yillar davomida turli sivilizatsiyalar, dinlar va siyosiy tuzumlar ta’sirida shakllanib, boy tarixiy tajribani o‘zida mujassam etgan. Har bir davr o‘zining bilim berish uslubi, mazmuni va qadriyatlari bilan ta’lim rivojiga hissa qo‘shgan. Bugungi kunda Afg‘onistonda ta’lim sohasida mavjud muammolarga qaramay, uning ildizlari chuqur tarixiy asosga ega bo‘lib, bu holat kelajakda ilm-fan va ma’rifatni qayta tiklash uchun muhim poydevor vazifasini o‘taydi.

XX asr boshlariga qadar Afg‘onistonda ta’lim va kasb-hunar o‘rgatish uyda maxsus ustozlar tomonidan, masjidlarda esa masjidlarga aloqador norasmiy maktablarda, madrasalarda amaliy ish joyida shogirdlik asosida amalga oshirilgan. Zamonaviy ta’lim tizimi Afg‘onistonda birinchi bor Amir Habibulloh (1901–1919) tomonidan joriy etilgan bo‘lib, u 1903-yilda viloyatida “Habibiya maktabi” nomli birinchi to‘laqonli zamonaviy o‘rta maktabni tashkil etgan[1]. Aynan shu davrda birinchi pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliygoh ‘‘Dar al-Muallimin’’ tashkil etilgan. 1904-yilda Afg‘on amiri asosan pashtun zodagonlarining va harbiylarning farzandlari uchun mo‘ljallangan maktab tashkil etdi va bu keyinchalik “Harbiya” nomi bilan tanilgan harbiy kollejga aylantirildi[2].1915-yilda boshlang‘ich maktablar tizimi kengaytirildi va bu maktablarda ta’lim bepul taqdim etildi. 1919-yilda uchinchi afg‘on urushi tugagach va Afg‘oniston mustaqillikka erishgach, shoh Omonullaxon ta’lim tizimini isloh qilishni davom ettirdi. U Ta’lim vazirligini tashkil etdi hamda konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritib, ta’lim bo‘yicha yangi moddalarni joriy etdi, xususan, 68-moddada boshlang‘ich ta’limni barcha fuqarolar uchun majburiy etib belgilandi[3]. Shoh Omonullaxon 8 ta zamonaviy maktabni ochdi, beshtasi o‘g‘il bolalar, uchtasi qiz bolalar uchun mo‘ljallangan edi. 1920-yillarda Germaniya, Fransiya va Misr kabi davlatlarning ko‘magida asosiy shaharlarda boshlang‘ich maktablar tashkil etila boshlandi. 1921-yilda Masturat nomli birinchi qizlar o‘rta maktabi tashkil etildi. Bu maktablarda o‘g‘il va qiz bolalarga nemis, fransuz, ingliz, turk va hind o‘qituvchilar ta’lim bergan. 1924-yilda ikkita kasb-hunar maktabi ochildi. Birinchisi, ‘‘Maktab-e-Hukkam’’ ma’muriy boshqaruvni o‘rgatish uchun, ikkinchisi ‘‘Tasviriy va amaliy san’at maktabi’’ san’at sohasi uchun mo‘ljallagan edi[4]. Ta’lim hanuz Afg‘oniston uchun yangi hodisa bo‘lib, hali ham oliy ta’lim tizimi mavjud emas edi. Shu sababli, eng iqtidorli talabalar oliy ta’limni davom ettirish uchun Germaniya, Fransiya va Misrga yuborilgan. Qiz o‘quvchilarning kichik bir qismi Turkiyada oliy ta’lim olgan.

1930-yilga kelib, Afg‘onistonda 13 ta ta’lim muassasasi va 1590 nafar o‘quvchi mavjud bo‘lgan, ularning aksariyati yuqori tabaqa va zodagon oilalarning farzandlari edi. Ta’lim tizimi ko‘p to‘siqlarga duch kelgan, chunki shohning zamonaviylashtirish istagi bilan konservativ kuchlar (diniy ulamolar, feodal yer egalari va qabila sardorlari) o‘rtasida qarama-qarshi fikrlar mavjud edi. Ular dunyoviy maktablar va ayniqsa qizlar uchun mo‘ljallangan maktablar ochilishiga qarshilik ko‘rsatishgan. Shoh Omonullaxonning konservativ urf-odatlarga qarshi qat’iy siyosati mamlakat ichida ixtiloflarga olib kelgan va 1929-yilda uning taxtdan ag‘darilishiga sabab bo‘lgan. Afg‘oniston tarixi, san’ati va arxeologiyasi bo‘yicha taniqli amerikalik olim Nensi Hetch Dupri (1998) ga ko‘ra, ‘‘Omonullaxon davrida Afg‘oniston ta’lim tizimi ikki yo‘nalishga bo‘linib ketgan, biri an’anaviy diniy ta’lim, ikkinchisi zamonaviy va dunyoviy ta’lim[5]’’. Shundan so‘ng, bu ikki tizim o‘rtasidagi ta’sir kurashi kuchayib borgan va bu holat siyosiy vaziyatlarga qarab vaqti-vaqti bilan o‘zgarib turgan. Ko‘p hollarda bu tafovut keskin ziddiyatlar bilan kechgan.

Omonullaxon taxtdan ag‘darilgach, uning o‘rniga diniy rahbarlarning qo‘llab-quvvatlovi bilan hokimiyatga kelgan Nodirxon (1929–1933) Omonullaxonning islohotlarining ko‘p qismini bekor qilgan, u qizlar uchun alohida maktablar ochilishini butun mamlakat bo‘ylab kengaytirgan. Ta’lim sohasidagi eng ilg‘or davr esa 1940-yillarning oxirida boshlangan[6]. Bu davrda hukumatning ta’limga ajratgan xarajatlari oshib, davlat budjetining 40 foizi ta’limga yo‘naltirilgan, shuningdek, xalqaro yordamning ta’limdagi ishtiroki kuchaygan. Bu esa boshlang‘ich maktablarning ko‘payishiga, hattoki qizlar uchun ikkita o‘rta maktab ochilishiga olib kelgan. Samadyning (2001) “Afg‘onistonda ta’limga umumiy nazar” asaridaga ko‘ra, ‘‘1950-yilda Afg‘onistonda jami 368 ta boshlang‘ich, o‘rta va kasb-hunar maktablari hamda 1 ta o‘qituvchilar tayyorlash maktabi mavjud bo‘lgan. Bu maktablarda jami 95 300 nafar o‘quvchi tahsil olgan[7]’’. 1960-yilda Afg‘onistonda davlat ta’limida bir nechta yutuqlar qayd etildi. Ijtimoiy bosimlar natijasida mamlakatning barcha hududlarida o‘rta maktablar ochildi, Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim va o‘qituvchilar tayyorlash dasturlari ham kengaytirildi, bu yo‘nalishda ikki tomonlama va ko‘p tomonlama xalqaro yordam ko‘rsatildi. 1964-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaning 34-moddasida qayd etilishicha, ta’lim har bir fuqaroning huquqi deb belgilandi[8]. Ta’lim davlat tomonidan bepul taqdim etilishi kerak edi. Boshlang‘ich ta’lim davlat zarur infratuzilma yaratgan hududlarda barcha bolalar uchun majburiy etib belgilandi. Davlat esa ta’lim uchun mos sharoitlar va binolarning qurilishi, ta’lim faoliyatini boshqarish, nazorat qilish va muvofiqlashtirish uchun javobgar etib belgilandi. Shu davrda ayollarning hurlik hissi kuchaydi va ro‘mol (hijob) taqish ixtiyoriy bo‘ldi, pardeh (ayollarni jamiyatdan ajratish amaliyoti) bekor qilindi. Bu esa ayollarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, ta’lim olish va ishlash imkoniyatini yaratdi. Bu davrda 6 dan 12 yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida boshlang‘ich ta’limga qamrov darajasi atigi 6 foizni tashkil qilgan. 1973-yilda Muhammad Dovud shohni ag‘darib, Afg‘oniston Respublikasini tashkil etganida, u yangi konstitutsiyani qabul qildi[9]. 1976-yilgi Konstitutsiyaning 10-moddasida ta’lim, xususan texnik va kasb-hunar ta’limiga alohida e’tibor qaratildi: “Majburiy boshlang‘ich ta’limni xalqqa xizmat qiladigan ilmiy va texnik kadrlarni tayyorlash va shakllantirish uchun ta’minlash va ommalashtirish, umumiy va kasbiy o‘rta hamda oliy ta’limni bepul ravishda kengaytirish va rivojlantirish zarur’’.

O‘g‘il va qiz bola talabalar oliy ta’lim va malaka oshirish uchun xorijga yuborilgan. 1974-yilgacha har yili 1 500 nafar talaba chet elga o‘qishga yuborilgan edi. 1978-yilga kelib, Afg‘onistonda maktablar soni 3 ming 825 taga yetgan, o‘quvchilar soni bir milliondan oshgan, o‘qituvchilar soni esa 40 mingga yetgan[10]. Rasmiy maktablar bilan bir qatorda, madrasalar (an’anaviy diniy maktablar) ham faoliyat yuritishda davom etgan, garchi ularning aniq soni noma’lum bo‘lsa-da, bu maktablar asosan o‘z jamoalari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan.

1978-yildan Afg‘onistonda boshlangan fuqarolar urushi maktablar va ta’lim infratuzilmasining keng ko‘lamli vayron bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Biroq imkon bor joylarda maktablar ochiq qolgan va qizlar ham darslarda qatnashishda davom etgan. Bu holat 1990-yillarda kelib o‘zgarib ketdi, chunki qizlar va ayollar uchun ta’lim imkoniyatlari cheklandi. 1995-yildan 2001-yilgacha ‘‘Tolibon’’ hokimiyatda bo‘lgan paytda ular qizlar maktablarini yopdi va qizlarga universitetlarda o‘qishni taqiqladi. Faqat tibbiyot universitetlarigagina istisno qilindi, chunki ‘‘Tolibon’’ ayol shifokorlarga ham muhtoj edi.

Ta’lim tizimining parokandalashuvi (1992-2001). Qarshilik harakati partiyalari tomonidan tuzilgan Afg‘oniston Islomiy Davlati (ISA, 1992-yil aprel – 1996-yil sentabr) faoliyati fuqarolar urushi va siyosiy anarxiya sharoitida boshlangan. Keyinchalik bu hukumat poytaxt Kobuldan ‘‘Tolibon’’ (1996-2001) tomonidan siqib chiqarildi. ‘‘Tolibon’’ hukmronligi ham keskin va shiddatli kurash bilan boshlangan. 1992-yil 17-aprel kuni Prezident Najibulloh hukumatdan iste’foga chiqib, Kobuldagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti vakolatxonasi binosidan boshpana topdi. Shundan so‘ng uning hukumatidagi yuqori lavozimli amaldorlar qarshilik partiyalari bilan hokimiyatni topshirish masalasida muzokaralarni boshladilar. Kobulni qurshab

olgan qarshilik kuchlari hamda Pokistonning Peshovar shahrida joylashgan ularning yetakchilari siyosiy hokimiyatni kim va qanday tarzda egallashi hamda hukumatni qanday shakllantirish masalasida hanuz qat'iy bir qarorga kelmagan edilar.

Qarshilik harakati yetakchilari hokimiyatni bo‘lishish, oliy rahbarlik kengashini tuzish hamda siyosiy hokimiyatni bosqichma-bosqich egallash va umumxalq saylovlariga olib boruvchi siyosiy yo‘l xaritasini ishlab chiqish ustida muzokaralar olib borar ekan, bir vaqtning o‘zida Kobulga kirib kelgan Hikmatyor kuchlari bilan Ahmadshoh Mas'ud (2001-yil sentabrda vafot etgan) va uning ittifoqchi kuchlari o‘rtasida shiddatli janglar davom etardi. Oxir-oqibat, Sebg‘atulloh Mujaddidiy boshchiligidagi qarshilik partiyalarining muvaqqat hukumati 1992-yil 30-aprelda Kobulga kirib, qulagan. AXDP (Afg‘oniston xalq demokratik partiyasi)dan hukumatni qabul qilib oldi. Biroq qarshilik partiyalari o‘rtasidagi siyosiy kelishmovchiliklar, hokimiyatni to‘liq egallashga intilish va mintaqaviy davlatlarning aralashuvi hamda o‘zaro bosimlari Afg‘onistondagi mojaroni boshi berk ko‘chaga olib kirib qo‘ydi.

XIX asrga xos mustaqil va yarim mustaqil qirolliklarga o‘xshash tuzilmalar shakllana boshladi va mamlakat ko‘plab kichik "sub-hukumat"larga bo‘linib ketdi. Kobul shahrining o‘zi ham qarshilik partiyalari o‘rtasida bo‘lib olindi. Hokimiyatni monopoliyalashga bo‘lgan intilish tez orada etnik urushga aylandi, bu jarayonda din siyosiy mexanizm sifatida qo‘llanib, urushni oqlash vositasiga aylantirildi. Natijada Kobulning g‘arbiy qismida minglab tinch aholi ommaviy ravishda qirg‘in qilindi. Mazkur sharoitda, 1994-yilda ‘‘Tolibon’’ nomli yangi siyosiy loyiha paydo bo‘ldi va 1996-yil sentabr oyiga kelib Kobulda siyosiy hokimiyatni egalladi. ‘‘Tolibon’’ tinchlik, tartib va barqarorlikni tiklash niqobi ostida dahshatli zo‘ravonliklar, tinch aholining qirg‘in qilinishi, etnik va diniy adovat bilan kechgan yangi davrni boshlab berdi. ‘‘Tolibon’’ning Usoma bin Ladenni qo‘llab-quvvatlashi va unga boshpana berishi, hamda 2001-yil 11-sentabrda Nyu-Yorkda sodir etilgan terrorchilik hujumlaridan keyin, AQShga topshirishdan bosh tortishi ularning 2001-yil noyabrida qulashiga sabab bo‘ldi. Mazkur davrda ta'lim tizimi ISA davrida parokandalasha boshladi va 2001-yilga kelib ‘‘Tolibon’’ hukmronligi ostida deyarli butunlay izdan chiqdi[11]. Avvallari nisbatan tinch bo‘lgan va fuqarolar urushidan asrab kelingan Kobul shahri eng shiddatli va dahshatli janglarni boshdan kechirdi. Bu janglar shahar infratuzilmasini, jumladan ta'lim muassasalarini ham butkul vayron qildi. Maktablar, universitetlar va davlat binolari harbiy bazalarga aylantirildi. Mamlakatdagi universitetlar va oliy ta'lim muassasalarining asosiy qismi joylashgan Kobulning g‘arbiy qismi janglarning markazida qoldi. Natijada binolar, kutubxonalar, jihozlar va ta'limga oid barcha infratuzilmalar yo‘q qilindi.

‘‘Tolibon’’ hokimiyatga kelgach, erkaklar va ayollar uchun qo‘shimcha qat'iy cheklovlar joriy etdi. Zamonaviy maktablar madrasalarga aylantirildi, qizlarning ta'lim olishi boshlang‘ich maktabning uchinchi sinfigacha cheklab qo‘yildi, ayollarga esa barcha davlat va ijtimoiy xizmatlarda ishlash taqiqlab qo‘yildi. 2001-yilga kelib, tanazzul bosqichini boshdan kechirgan ta'lim tizimi oxir-oqibat butunlay barbod bo‘ldi. Agar XX asrning boshlanishi zamonaviy ta'limning boshlanishi bo‘lsa, asr oxiri uning quyoshi botgan pallasi bo‘ldi. Siyosiy hokimiyatni bo‘lishish, keng ijtimoiy qatlamlarni qamrab olgan hukumatni shakllantirish hamda qurolli to‘qnashuvlar va fuqarolar urushiga barham berish mazkur davrda qarshilik partiyalari oldida turgan eng asosiy masalalar va ularning salohiyatini sinovdan o‘tkazuvchi mezonlar edi. Biroq fraksiyalar o‘rtasidagi qurolli to‘qnashuvlar va raqobat, hokimiyatni to‘liq monopoliya qilishga intilish hamda tashqi davlatlarning aralashuvi qarshilik partiyalarining keng qamrovli hukumat tuza olmasligining asosiy sabablaridan bo‘ldi. Pokistonda joylashgan va asosan sunniy yo‘nalishdagi partiyalar Eronda joylashgan shia Hizb-e Vahdat partiyasini hukumat tarkibidan chetlatdilar. ‘‘Tolibon’’ muxolif kuchlarga hech qanday yon berishga tayyor emasligini ko‘rsatdi. Aksincha, ushbu davr davomida barcha tomonlar o‘zaro muzokaralar olib borish va BMT hamda boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali fuqarolar urushiga barham berishga

qodir emasdilar. **Qarshilik partiyalari va ustunlik uchun kurash.** Ustunlikni qo‘lga kiritishga intilish ISA tashkil etilgan ilk kundan boshlab qarshilik partiyalarining asosiy xususiyatiga aylandi. Najibulloh BMT vakolatxonasi binosidan boshpana topgach va mamlakatni muvaqqat hokimiyat boshqara boshlagan bir paytda, qarshilik kuchlari Kobulni qurshab olgan edilar. Shunga qaramay, ular qulagan Najibulloh hukumatidan siyosiy hokimiyatni qanday, qachon va kim egallashi lozimligi borasida yakdil qarorga kela olmadilar. Burhoniddin Rabboniy boshchiligidagi ‘‘Jamiat-e Islomiy’’ partiyasining mashhur qo‘mondonlaridan biri bo‘lgan Ahmadshoh Mas’ud Peshovarda joylashgan qarshilik yetakchilari tomonidan jamoaviy qaror qabul qilinishini qo‘llab-quvvatladi. Bunga qarama-qarshi ravishda, ‘‘Hizb-e Islomiy’’ rahbari Gulbuddin Hikmatyor Peshovarda tuziladigan har qanday kelishuvni rad etdi. Hikmatyor Kobul tomon yurish qilib, shahar va hukumatni kuch bilan egallashga urinayotgan bir paytda, qarshilik partiyalari Peshovar kelishuvi yoki Peshovar bitimi nomi bilan mashhur bo‘lgan kelishuvga erishdilar. Peshovar kelishuvi siyosiy yo‘l xaritasini belgilab berdi. Unga ko‘ra, dastlab Sebg‘atulloh Mujaddidiy boshchiligida ikki oylik muvaqqat hukumat tuzilishi, undan so‘ng esa olti oylik o‘tish davri hukumati va prezidentlik lavozimi Burhoniddin Rabboniyga berilishi ko‘zda tutilgan edi. Ahmadshoh Mas’ud Mudofaa vaziri etib tayinlangan bo‘lsa-da, uning ashaddiy raqibi Hikmatyor bosh vazir lavozimiga tayinlandi, biroq u bu lavozimni hech qachon qabul qilmadi. Bundan tashqari, kelishuv ijrosini nazorat qilish maqsadida 51 nafar a’zodan iborat Oliy Rahbarlik Kengashi (O‘tish davri kengashi deb ham atalgan) tashkil etildi. 1992-yil 28-aprelda Afg‘oniston Demokratik Respublikasi vitse-prezidenti Abdul Vohid Sorobiy siyosiy hokimiyatni rasman Sebg‘atulloh Mujaddidiyga topshirdi[12]. Mujaddidiy Kobulga kelib, Afg‘oniston islomiy davlati (ISA) deb atalgan ikki oylik muvaqqat hukumatga rahbarlik qildi. Biroq jarayonning ilk bosqichidanoq Pokistonda joylashgan va asosan sunniy yo‘nalishdagi partiyalar o‘z siyosiy yo‘l xaritasining tafsilotlarini muhokama qilar ekanlar, Eronda joylashgan shia ‘‘Hizb-e Vahdat’’ partiyasini hukumatga qo‘shishmaslikka qaror qildilar. Bu holat Hikmatyorning Peshovar kelishuvini va o‘zining Bosh vazir etib tayinlanishini qabul qilmasligi hamda Kobul va uning atrofida boshlangan shiddatli janglar sobiq qarshilik partiyalaridan tuzilgan hukumatning o‘zaro kelishmovchiliklarni chetga surib, keng qamrovli hukumat tuzishga tayyor emasligini yaqqol namoyon etdi. Hokimiyatni shaxsan o‘z qo‘lida saqlab qolish istagi faqat Hikmatyorga xos holat emas edi. Hukumatni ikki oy davomida boshqargach, Sebg‘atulloh Mujaddidiy qabila boshliqlari va harbiy qo‘mondonlar undan hukumatni ikki yil davomida boshqarishni so‘raganliklarini ta’kidladi, chunki u sunniy qarshilik yetakchilari orasida eng mo‘tadil shaxs hisoblanardi. Hikmatyor esa Mujaddidiyga ham, boshqa qarshilik yetakchilariga ham deyarli hech qanday hurmat ko‘rsatmadi. Mujaddidiy hokimiyatda qolish istagini bildirgan bayonotlari uchun keskin tanqidga uchradi. Gulbuddin Hikmatyor esa Mujaddidiyning da’vosini asossiz deb e’lon qildi. Shundan so‘ng Mujaddidiy o‘z xohishi bilan lavozimidan ketdi va hokimiyatni **Rabboniy**ga (2011-yil 20-sentabrda vafot etgan) topshirdi. Rabboniy umumxalq saylovlari uchun zamin hozirlash maqsadida o‘tish davri hukumatiga to‘rt oy davomida rahbarlik qilishi kerak edi. 1992-yil oktabrida uning vakolat muddati tugashidan oldin, Rabboniy ‘‘Shura-e Hal-o-Aqd’’ nomi bilan tanilgan Diniy Kengashni chaqirib, o‘z vakolatlarini yana ikki yilga uzaytirdi. Muvaqqat va o‘tish davri hukumatlari faoliyatini nazorat qilib kelgan ‘‘O‘tish davri Kengashi’’ Rabboniyning bu o‘zini-o‘zi rahbar deb e’lon qilgan qaroriga qarshi chiqdi. Jumladan, pashtun qarshilik yetakchilari Mavlaviy Yunus Xolis va Hikmatyor Rabboniyning vakolat muddatini uzaytirishini noqonuniy deb e’lon qildilar. Shubhasiz, bu partiyalarning har biri, jumladan harbiy jihatdan nisbatan kuchsiz bo‘lgan Mujaddidiy ham, agar zarur harbiy imkoniyatlarga ega bo‘lganida, hokimiyatni to‘liq monopoliya qilgan bo‘lardi. Bu holat ilgari qabila monarxlari va PDPA davrida ham kuzatilgan edi. Ustunlik uchun kurash urushni etnik va diniy mojaroga aylantirdi. **ISA** tashkil etilganidan ko‘p o‘tmay, urush etnik tus ola boshladi. Mamlakat va Kobul shahri tojiklar, hazoralar, pashtunlar va o‘zbeklar hududlariga bo‘linib ketdi, shuningdek Prezident Rabboniy nazoratidan tashqarida bo‘lgan ko‘plab mustaqil boshqaruvchi

hududlar paydo bo‘ldi. Bu esa etnik to‘qnashuvlar va ommaviy qirg‘inlarga olib keldi. Qarshilik partiyalari o‘n minglab qurollangan jangchilarini shaharning turli hududlariga joylashtirdilar. Har bir guruh o‘z nazorat punktlarini o‘rnatib, Kobulning muayyan qismini boshqara boshladi. Kobul ko‘plab “kirib bo‘lmas hududlar” va tekshiruv punktlariga bo‘linib ketdi hamda o‘zining yaqin tarixidagi eng qonli to‘qnashuvlarni boshdan kechirdi. Kobul va uning atrofidagi asosiy qurolli to‘qnashuvlar 1992-yil avgust oyining boshlarida, 1993-yil mart oyida va 1994-yil yanvar oyida sodir bo‘ldi. Ommaviy raketa hujumlari shaharning yarmiga yaqinini vayron qildi va taxminan 25 ming nafar tinch aholi halok bo‘ldi. Eng dahshatlisi esa 1993-yilda sodir bo‘lgan hazoralarga qarshi etnik qirg‘in bo‘ldi. Yangi hukumatdan chetlashtirilgan shia va hazora partiyasi Hizb-e Vahdat Kobulning g‘arbiy qismida o‘z ta’sirini saqlab qolishga urinib, Abdur Rasul Sayyaf boshchiligidagi sunniy va pashtun Etehad-e Islomiy partiyasi bilan to‘qnash keladi.

1993-yil fevral oyida Mudofaa vaziri Ahmadshoh Mas’ud qo‘shinlari Ichki ishlar vazirligini nazorat qilgan Sayyaf kuchlariga qo‘shilib, Kobulning g‘arbiy qismida shia va hazora jamoalariga qarshi shiddatli hujumlar va qirg‘inlarni amalga oshirdi. Natijada qariyb 2 ming nafar hazoriy qirg‘in qilinib, ularning jasadlari ommaviy qabrlarga tashlandi. Afshar qirg‘ini qarshilik partiyalari o‘rtasidagi ittifoqlarni tubdan o‘zgartirdi. Ahmadshoh Mas’ud va Rabboniy Shura-e Nizarga (Nazorat Kengashi) rahbarlik qildilar. Hizb-e Vahdat esa Mas’udning ashaddiy dushmani bo‘lgan Hikmatyor boshchiligidagi ‘‘Shura-e Hamahangi’’ga (Muvofiqlashtiruvchi Kengash) qo‘shildi. Hikmatyor Kobulni o‘qqa tutishni davom ettirdi, natijada minglab odamlar halok bo‘ldi va yaralandi.

Kobul shiddatli janglar girdobida qolgan bir paytda, mamlakatning qolgan hududlari mahalliy qo‘mondonlar tomonidan boshqarildi. General Abdul Rashid Do‘stum va Sayyid Mansur Nodiriy shimoliy viloyatlar - Bag‘lon, Faryob, Jozjon hamda Qunduz va Samanganning ayrim qismlarini nazorat qildilar**.** Ismoilxon mahalliy militsiyalarni qurolsizlantirib, g‘arbiy viloyatlar - Hirot, Bodg‘is, 0Faroh va G‘orni boshqardi[13]. Sobiq qarshilik qo‘mondoni Abdul Qodir (2002-yilda vafot etgan) esa sharqdagi Nangarhor viloyati hokimi bo‘ldi. Ushbu davrdagi siyosiy jarayonlarga xorijiy aralashuv ham faol ta’sir ko‘rsatganligi ko‘rinadi. Pokistonda joylashgan qarshilik partiyalarining asosiy homiylaridan biri bo‘lgan Saudiya Arabistoni shia rahbariyatga ega Eronga qarshi edi va Eron asosidagi Hizb-e Vahdatni chetlashtirishda hamda qarshilik partiyalarining sunniylar boshchiligidagi hukumatida Eron ta’sirini kamaytirishda muayyan rol o‘ynagan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, Pokiston Afg‘onistonda kamida ikkita muhim strategik maqsadni ko‘zlab harakat qilayotgan edi.

Birinchidan, Pokiston rahbarlari Afg‘onistonda Pokistonga itoat qiladigan yoki hech bo‘lmasa Pokistonga do‘stona hukumatni o‘rnatishni xohlashgan, bu hukumat esa Afg‘oniston bilan chegara masalasini Pokiston manfaatlariga mos ravishda barham berishi kerak edi. Ikkinchidan, Pokiston Afg‘onistonda shakllanayotgan hukumatning mintaqada o‘zining iqtisodiy, siyosiy va strategik manfaatlarini, xususan Markaziy Osiyo bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berishini kutgan. Mazkur maqsadlar Rabboniyning hukmronligi ostida, xususan, Pokistonga biror marta tashrif buyurmagan qarshilik qo‘mondoni Ahmadshoh Mas’ud bilan amalga oshishi qiyin edi. Rabboniy Pokistondan mustaqil siyosat olib borganligi sababli, Pokiston hokimiyati Hikmatyorni qo‘llab-quvvatladi. Pokiston uchun Kobulda do‘stona, agar itoat qiluvchi hukumat bo‘lmasa ham, kamida do‘stona hukumat bo‘lishi yoki barqaror va mustaqil hukumat o‘rniga imkon qadar uzoq vaqt tartibsizlik va beqarorlikni saqlash muhim edi. Rabboniy va Mas’ud butun siyosiy o‘yinni noto‘g‘ri baholashdi. Ular Pokiston hukumatlari, Saudiya qirollari yoki BMT agentliklari vositachilik qilishi mumkin bo‘lgan Hikmatyor bilan tinchlik kelishuviga ishongan holda harakat qilishda davom etdilar. Biroq bu masala faqat Hikmatyorning tanloviga bog‘liq emas, balki Pokiston hukumatining qachon va qanday qilib Hikmatyor Kobulni o‘qqa tutishni to‘xtatishi va Rabboniy hamda Ahmadshoh Mas’ud

boshchiligidagi tojik hukumatini tan olishi masalasiga bog‘liq edi.

1993-yil 7-martdagi Islomobod kelishuvi va 1993–1996 yillarda Mahmud Mestiri boshchiligida BMT tomonidan olib borilgan tinchlik muzokaralari ijobiy natija bermadi[14]. Shuningdek, Islom Hamkorlik Tashkiloti va BMT Bosh kotibining vakili Benon Sevanning Hikmatyor va Rabboniy o‘rtasida tinchlik kelishuvi tuzishga bo‘lgan sa’y-harakatlari ham samara bermadi. 1993-yil 7-martda Saudiya qirol Fahd sunniy qarshilik yetakchilari o‘rtasida tinchlik kelishuvi o‘rnatdi, ular Muqaddas uyda kelishuvlariga sodiq qolishga qasamyod qildilar. Biroq kelishuv uzoq davom etmadi va Hikmatyor bosh vazir lavozimiga o‘tirmadi. Pokiston Hikmatyorni qo‘llab-quvvatlagani va uni tinchlik jarayoniga qo‘shilishini xohlamaganligi sababli, yuqoridagi tinchlik kelishuvlari hech qanday natija bera olmadi. Mas’ud Hizb-e Vahdatning hazora partiyasi va o‘zbek generali Abdul Rashid Do‘stum bilan ittifoq tuzish o‘rniga, ularga qarshi kurashib, ularni o‘zidan uzoqlashtirdi. Do‘stum, Abdul Ali Mazari (Hizb-e Vahdat rahbari) va Ahmadshoh Mas’ud Najibulloh hukumatining qulashidan oldin o‘z kuchlarini birlashtirib, post-Najibulloh hukumatini boshqarish bo‘yicha kelishuvga erishganlar. Ma’lum bo‘lishicha, Ahmadshoh Mas’ud bu g‘oyani qabul qilgan, ammo va’dasini bajara olmadi. Buning o‘rniga u qarshilik yetakchilarini rahbarlik qilishga taklif qilgan. Keyinchalik Mas’ud va Rabboniy siyosiy vaziyatni noto‘g‘ri baholashni davom ettirdilar. Ehtimol, hokimiyatni monopoliya qilish istagi va siyosiy ko‘rish qobiliyatining yetishmasligi ularni ikki kuchli partiyadan yanada uzoqlashtirib, o‘z hokimiyat bazasini zaiflashtirishga olib keldi. 1993-yil 25-iyunda Ahmadshoh Mas’ud va Shaikh Muhammad Asif Muhseni Kobulning sharqiy va g‘arbiy qismlarida muxolif partiyalarga hujum qilib, ularning shtablarini egalladilar. Xalqaro Qizil Xoch qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, ‘‘janglar shunchalik keskin bo‘ldiki, Qizil Xoch xodimlari jarohatlanganlarni evakuatsiya qila olmadi[15]. Shaharning yarim million aholisi qochishga majbur bo‘ldi, taxminan 3 ming kishi halok bo‘ldi va 19 ming kishi jarohatlandi’’. To‘rt yil o‘tib, 1996-yilga kelib, Rabboniy va Mas’ud mamlakatni boshqarishga qodir emasligini va “jihad” davrida qo‘lga kiritgan obro‘larini yo‘qotganliklarini anglashdi. Aholi tinchlik va barqarorlikni olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday yangi kuchni qabul qilishga tayyor edi.

‘‘Tolibon’’ yetakchilari va qo‘mondonlari, jumladan ‘‘Tolibon’’ rahbari Mulla Muhammad Umar ham Sovetlar davridagi qarshilik harakati a’zosi bo‘lgan. Ularning qo‘shinlari asosan madrasalarda ta’lim olgan talabalar bo‘lib, ular Pokistonda va Afg‘onistondagi pashtun qabila hududlarida o‘qigan. Ularning ta’lim tarixi qarshilik davri ta’limi va darsliklaridan, sezilarli darajada ta’sirlangan edi. ‘‘Tolibon’’ dastlab urushni tugatadigan tinchlik vositachisi sifatida paydo bo‘lgan, biroq tez orada ular ham hokimiyatni qo‘lga kiritish uchun kurashgan yana bir kuch sifatida namoyon bo‘lishdi. Tashqi davlatlar ham ‘‘Tolibon’’ning shakllanishi va hokimiyatga ko‘tarilishiga faol ta’sir ko‘rsatdilar. ‘‘Tolibon’’ tez rivojlangan pashtun harakati sifatida shakllanib, o‘zini madrasalarda olingan ta’lim bilan bog‘lagan. Siyosiy harakat sifatida ular 1994-yil bahorida Qandahor viloyatining Sangsar tumanida paydo bo‘lgan va pashtun sunniy harakati sifatida tashkil topgan[16]. Barbara Metkalf o‘zining ‘‘Islamic Revival in British India: Deoband’’ asarida toliblarni XIX asr oxirida Hindistonning Deoband shahrida paydo bo‘lgan sunniy mazhab maktabi tarkibiga kiruvchi oqim sifatida tasniflaydi, aslida toliblar aynan shu yerda ta’lim olgan. Shuningdek, Rubinning ta’kidlashicha, ‘‘toliblar ta’limni Afg‘oniston va Pokistonning pashtun qabila hududlaridagi Deobandi madrasalarida olgan, Deoband shahrida emas[17]’’. ‘‘Tolibon’’ rasmiy nomi bilan ‘‘Tahrik-e Islami Taliban-e Afghanistan’’ (Afg‘oniston ‘‘Tolibon’’larining Islomiy Harakati) deb atalgan va bu nom ommaviy ravishda ‘‘Tolibon’’ deb tanilgan, ya’ni “izlovchilar” ma’nosini bildiradi, biroq odatda diniy bilim izlovchi madrasalar talabalari sifatida tushuniladi. Biroq, nomidan farqli o‘laroq, Toliblarning ko‘pchiligi sobiq qarshilik partiyalari va madrasalar talabalaridan tashkil topgan. ‘‘Tolibon’’ radikal diniy qarashlari va adliya tizimi bilan tanilgan. Ular jamiyatni

islomga zid elementlar va korrupsiyadan “tozalash” va “pok” Islomiy davlat o‘rnatishga harakat qilgan. Biroq ularning diniy va sud amaliyotlari Islomning radikal talqini va ‘‘Pashtun qabila odat-qoidalari’’ (Pashtunvaliy)ning aralashmasidan iborat bo‘lib, qattiq jazolar bilan mustahkamlangan edi. Toliblar Sovetlar bosqini va AXDP davrida madrasalarda ta’lim olib, diniy ekstremizm, nafrat va zo‘ravonlikni o‘rgangan edilar. Ular o‘z ortopraxisini va diniy adolatni quyidagi qonunlar orqali amalga oshirgan.

Xulosa

Afg‘oniston ta’lim tizimi uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, uning rivojlanishi mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Qadimiy ilmiy va diniy markazlar negizida shakllangan ta’lim tizimi XX asr boshlarida modernizatsiya jarayoniga kirgan bo‘lsa-da, ichki siyosiy nizolar, fuqarolar urushi va ekstremistik kuchlarning hokimiyatga kelishi bu tizimning izdan chiqishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, “Tolibon” davrida ayollar va qizlarning ta’lim olish imkoniyatlari keskin cheklanib, zamonaviy ta’lim infratuzilmasi katta zarar ko‘rdi. Shunga qaramay, Afg‘oniston ta’lim tizimining tarixiy ildizlari va ilmiy-ma’rifiy an’analari mamlakatda ta’limni qayta tiklash va rivojlantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. European University Association. (2020). Academic freedom and institutional autonomy: Developments in Europe and beyond.
2. Dupree, N. H., & Kohzad, A. A. (1972). An Historical Guide to Kabul. Kabul: Afghan Tourist Organization.
3. Osman, B. (2015). Beyond jihad and traditionalism: Afghanistan’s new generation of Islamic activists. Afghanistan Analysts Network.
4. Samady, S. R. (2001). Education and Afghan Society in the Twentieth Century. UNESCO.
5. Lone, R. M., Naz, S., & Shukla, S. (2018). Women under the Taliban regime: A theoretical perspective.
6. Constitution of the Republic of Afghanistan. (1976).
7. Lohr, D. (2014). Mädchen- und Frauenbildung in Afghanistan: Eine Situationsanalyse mit Vorschlägen für den Unterricht. Freiburg.
8. Akbari, F., & True, J. (2022). One year on from the Taliban takeover of Afghanistan: Reinstituting gender apartheid. Australian Journal of International Affairs, 76(6).
9. Maley, W., & Saikal, A. (1992). Political Order in Post-Communist Afghanistan. Boulder: Lynne Rienner.
10. Rubin, B. R. (1999). Afghanistan under the Taliban. Current History.
11. Saikal, A. (1998). The Rabbani government, 1992–1996. In W. Maley (Ed.), Fundamentalism Reborn: Afghanistan and the Taliban. London: Hurst.
12. Kamgar, J. R. (2000). Historical Events of Afghanistan, 1990–1997. Peshawar: Maiwand Publications.
13. Matinuddin, K. (1999). The Taliban Phenomenon: Afghanistan 1994–1997. Oxford University Press.
14. Nojumi, N. (2002). The Rise of the Taliban in Afghanistan: Mass Mobilization, Civil War, and the Future of the Region. New York: Palgrave.
15. Amnesty International. (1995). Afghanistan: The Human Rights Crisis and the Refugees.
16. Marsden, P. (1998). The Taliban: War, Religion and the New Order in Afghanistan. London: Zed Books.
17. Gohari, M. J. (2000). The Taliban Ascent to Power. Oxford University Press.
18. Metcalf, B. D. (1982). Islamic Revival in British India: Deoband, 1860–1990. Princeton University Press.